

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11498266>

Ziyodaxon Faxriddin qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Xitoy tarixini o'rganishda birlamchi manbalar - sulolalar tarixiga oid manbalar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tildi. 24 sulola tarixi manbalarining umumiy tavsifi va ular orasidan joy olgan "Sui shi" asari haqida alohida to'xtalib o'tildi. Asarning muallifi, yozilgan davri, tarkibi hamda mazmuni o'zbek tiliga tarjima qilinib, qisman izohlab taqdim etildi. Maqolada tarjima, tahlil, tarixiylik metodlaridan foydalanildi. Xulosa o'rnida*

Kalit so'zlar: *Sulolalar, imperator, Sui shi, tanqidiy yondashuv, 24 sulola tarixi, biografiyalar, g'arbiy hududlar.*

Xitoy sulolalar tarixi to'plamiga kiruvchi 24 ta asar Xitoy tarixini o'rganishdagi birlamchi va asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jamlanma manbalar xitoy tarixiga oid juda katta hajmdagi tarixiy ma'lumotlarni mujassam etadi. Bu ma'lumotlar tarixiylik nuqtayi nazardan xolislik bilan baholashda qisman qiyinchilik tug'dirishini inobatga olib, ushbu manbalardan foydalanishda tarixiylik va tanqidiy baholash metodlarini nazardan chetda qoldirmaslik muhim hisoblanadi. Tarixni o'rganish va o'qitishda tanqidiy yondashuv ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, tarixni yozayotgan shaxsning shaxsiyati, qarashlari, e'tiqodi va Xitoy misolida esa ayniqsa lavozimi kabi bir qancha omillarning ta'sirini to'g'ri baholay olish muhim. Ushbu 24 sulola tarixi manbalarini ham asosan davlat mutasaddilari, vazirlar, tarixchi olimlar kabi siyosiy kayfiyati yuqori bo'lgan mualliflar tashkil etishini yodda saqlash zarur.

“随书” / (Sui shu)- Sui sulolasi kitobi 630-636-yillar oralig'ida 魏微 va 颜师古 / Vei Vei va Yan Shi Gular tomonidan yozilgan bo'lib, umumiy 85 bobdan iborat. Suy kitobi (Suí Shū) - eramizning 581-618 yillari Xitoyda hukmronlik qilgan Suy sulolasining rasmiy tarixidir. U Xitoyning rasmiy yigirma to'rtta tarixi qatoriga kiradi. Uni Yan Shigu, Kong Yingda va Chjansun Vuji yozgan, bosh muallif Vey Chjen bilan. Tang sulolasi Chjenguan hukmronligining uchinchi yilida (629) Tang imperatori Taizong Fang Syuanlingga boshqa rasmiy tarixlar yozilayotgan bir vaqtda tuzilayotgan Suy kitobining tugallanishini nazorat qilishni buyurdi. Suy kitobi milodiy 636-yilda, Chen kitobi tugallangan yili tugallangan. Matnda foydalanilgan uslub Ban Gu tomonidan "Keyingi Xanlar kitobi"da uchta bo'limdan iborat bo'lgan kompozit tarixiy biografiya formatiga mos keladi: yilnomalar, risolalar va biografiyalar. Sui kitobidagi ba'zan "monografiyalar" deb tarjima qilingan 30 ta risolaning keng to'plami alohida mualliflar to'plami tomonidan to'ldirilib, asl matn tugallangandan

keyin 656-yili ya'ni 20 yil ichida qo'shilgan.²⁹ Risolalar Suydan tashqari Lyan, Chen, Shimoliy Qi va Shimoliy Chjou sulolalarini qamrab oladi. Liang kitobi va Chen kitobidan tashqari, Sui kitobi o'sha sulolalar uchun o'rganilgan mavzular bo'yicha muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Klassiklarga oid risolalar (kínjič) ayniqsa muhimdir, chunki Suy kitobi Xan kitobidan keyingi bo'limni o'z ichiga olgan yagona standart tarix bo'lib, keyingi Xan davridan (25-220) Suy sulolasigacha bo'lgan davr uchun muhim bibliografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Risolalar dastlab "Besh sulola tarixi risolalari" deb nomlangan alohida to'plam sifatida tarqatilgan.³⁰

Asarning 1-bobidan 5-bobigacha tarix boblari bo'lib, imperator Gaozu 1, imperator Gaozu 2, Yang imperator 1, Yang imperator 2 va Gong imperator qismlaridan tashkil topgan.

6-35-boblari risolalarga bag'ishlangan bo'lib aynan dastlabki 7 bobi odatlarga oid, navbatdagi 3 bobi musiqaga oid, keyingi 3ta bobi o'lchovlar va taqvimlar boblari, keyingi 3 bobi astronomiyaga oid, keyingi 2 bobi besh unsurga oid boblar hisoblanadi. Shuningdek, moliya va iqtisodiyot, jazo va qonun, navbatda yana 3 bobi hukumat lavozimlariga oid, navbatdagi 3 bobi geografiyaga oid va so'nggi 4 boblari bibliografiyalari deb nomlangandir.

36-85-boblar esa biografiyalari deb nomlanib, Imperator ayollari va Xonimlar bobi bilan boshlanadi; 37-bob: Li Mu, Liang Rui; 38-bob: Liu Fang, Zheng Yi, Liu Qiu, Huang Fuji, Lu Ben; 39-bob: Yu Yi, Yin Shou, Dou Rongding, Yuan Jingshan, Yuan Xiong, Dou Luji, He Ruoyi; 40-bob: Liang Shiyin, Yu Wenxin, Wang Yi, Yuan Xie, Wang Shiji, Yu Qingze, Yuan Zhou; 41-bob: Gao Jiong, Su Wei; 42-bob: Li Delin; 43-bob: He Jian Wanghong, Yang Chugang, Yang Zichong, Guang De, Wang Xiong; 44-bob: Teng Mu Wangzan, Daodao Wangjing, Caiwang Zhiji; 45-bob: Wen Sizi; 46-bob: Zhao Jiong, Zhao Fen, Yang shangxi, Zhang Sunping, Yuan Hui, Wei Shi, Yang Yi, Su Xiaoci, Li Xiong, Zhang Jiong; 47-bob: Wei Shikang, Liu Ji; 48-bob: Yang Su; 49-bob: Niu Hong; 50-bob: Yu Wenqing, Li Licheng, Yuan Xiaoju, Guo Rong, Pang Huang, Li An; 51-bob: Zhang Sunlan; 52-bob: Han Qinhu, He Ruobi; 53-bob: Daxi Zhangru, Helou Zigan, Shi Wansui, Liu Fang; 54-bob: Wang Zhangshu, Li Yan, Yi Louqian, Tian Rengong, Yuan Heng, Du Zheng, Li Che, Cui Peng; 55-bob: Du Yan, Gao Mai, Er Zhu Chang, Zhou Yao, Du Gukai, Qi Fuhui, Zhang Wei, Honghou Mo Chenying, Zhang Wei, He Hong, Houmo Chenying; 56-bob: Lu Kai, Ling Huxi, Xue Zhou, Yu Wenbi, Zhang Heng, Yang Wang; 57-bob: Lu Sidao, Li Xiaozhen, Xue Daoheng; 58-bob: Ming Kerang, Wei Dan, Lu Shuang, Du Taiqing, Xin Deyuan, Liu Bian, Xu ShanXin, Li Wenbo; 59-bob: Yang imperatorning uch o'g'li; 60-bob: Cui Zhongfang, Yu Zhongwen, Duan Wenzhen; 61-bob: Yu Wenshu, Guo Yan; 62-bob: Wang Shao, Yuan Yan, Liu Xingben, Liang Pi, Liu Yu, Zhao Chao, Pei Su; 63-bob: Fan Zigai, Shi Xiang, Yuan Shou, Yang Yichen, Wei Xuan, Liu

²⁹ Xiong, Victor Cunrui (2015). "Sui shu 隋書". In Dien, Albert E.; Chennault, Cynthia Louise; Knapp, Keith Nathaniel; Berkowitz, Alan J. (eds.). *Early Medieval Chinese Texts: A Bibliographical Guide*. Berkeley, CA: Institute of East Asian Studies University of California. pp. 332.

³⁰ Twitchett, Denis (1998). The Writing of Official History in the T'ang. *Cambridge Studies in Chinese History, Literature and Institutions*. Cambridge University Press. 1998, p.87.

Quan; 64-bob: Li Yuantong, Chen Mao, Zhang Dinghe, Zhang Bian, Mai Tiezhang, Shen Guanglai, Yu Juluo, Chen Leng, Wang Bian Guang, Lai Hua'er, Yu Juluo, Chen Leng, Wang Bian; 65-bob: Zhou Luohou, Zhou Fashang, Li Jing, Murong Sancang, Xue Shixiong, Wang Rengong, Quan Wu, Tu Wanxu, Dong Chun, Zhao Cai; 66-bob: Li E, Hao Hong, Pei Zheng, Liu Zhuang, Yuan Shi, Lang Mao, Gao Gou, Zhang Qianwei, Rong Pi, Lu Zhiming, Fang Yanqian; 67-bob: Yu Shiji, Pei Yun, Pei Ju; 68-bob: Yu Wenkai, Yan Pi, He Chou; 69-bob: Wang Shao, Yuan Chong bob; 70-bob: Yang Xuangan, Li Zixiong, Zhao Yuanshu, Hu Shizheng, Liu Yuanjin, Li Mi, Pei Renji; 71-bob: Nuroniy odamlar; 72-bob: Farzandparvarlik; 73-bob: Namunali hodimlar; 74-bob: zolim hodimlar; 75-bob: Konfutsiylik mutafakkirlari; 76-bob: Adiblar; 77-bob: Sayyohlar; 78-bob: San'atkorlar; 79-bob: Imperatorning qarindoshlari; 80-bob: Namunaviy ayollar; 81-bob: Dongyi xalqlari; 82-bob: Nanman xalqlari; 83-bob: G'arbiy mintaqa; 84-bob: Beidi xalqlari 85-bob: Yuwen Huaji, Pei Qantong, Wang Chong, Duan Da deb nomlangan boblardan tashkil topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, asarning 83-bobida Garbiy mintaqalar sanab o'tilganda aynan Markaziy Osiyoning VI-VII asrlardagi tarixiga oida ma'lumotlar keltirilganligi yurtimiz tarixini turli manbalardan o'rganishimizdagi yana bir bosqichi sifatida xizmat qiladi. Xitoy manbalarida g'arbiy hududlar deganda Yevropa yoki AQSH davlatlari emas balki Markaziy Osiyo va hattoki Sharqiy Turkistonning o'sha davrdagi tarixiy o'rnidan boshlanadigan geografik hududlarga nisbatan ham ishlatilgan. Chunki, xitoyliklar Osiyo qit'asining eng sharqiy qismlaridan vujudga kela boshlaganlar va o'zlarini sharqiy hududlarda, o'zlarini davlatlaridan g'arbda joylashgan barcha davlatlarni g'arbiy hududlar deb tarixda yozib qoldirish an'anasiga suyanganlar. Bu nafaqat biz tadqiq etgan Sui shu asarida balki, barcha boshqa 24 tarix kitoblarida ham shunday nomlangan boblarni tez-tez uchratish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. “随书” / (Sui shu)
2. Аблат Хужаев . Фаргона Хитой манбаларида. Тошкент.2013.
3. Ablat Xo'jayev. Markaziy Osiyo davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar.
4. <https://chinesenotes.com/suishu.html>
5. <https://chinesenotes.com/suishu/suishu083.html>